

Prezident Turkmanistonga jo'nab ketdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Prezident Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan 20-oktabr kuni rasmiy tashrif bilan Turkmanistonga jo'nab ketdi.

Bo'lajak oliy darajadagi muzokaralar chog'ida strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqiladi. Sammit yakunida ustuvor yo`nalishlar bo'yicha o'ndan ziyod hujjat imzolanishi rejalashtirilgan.

Ashxobod shahrida «Toshkent» bog'ining ochilishi, «Xorazm - Toshovuz» chegaraoldi savdo markazi qurilishining boshlanishi ham tashrifning muhim voqealari bo'ladi.

Manba